



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истiqболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В
УЗБЕКИСТАНЕ**

**IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR
SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN**

Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedrası mudiri, dotsent, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda agroklastarlarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Agroklastarlarni shakllanish bosqichlari ko‘rib chiqilgan. Agroklastarlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan. Agroklastarlarni tashkil etish yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, tarmoq, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, agroklastarlar, mintaq, iqtisodiyot, mahsulot, strategiya, rivojlanish, samaradorlik.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов развития агрокластеров в Узбекистане. Разработаны этапы формирования агрокластеров. Были выдвинуты предложения по развитию агрокластеров. Разработана дорожная карта по созданию агрокластеров.

Ключевые слова: сельское хозяйство, отрасли, организационно-экономические механизмы, агрокластеры, регион, экономика, продукт, стратегия, развитие, эффективность.

The article examines the issues of improving the organizational and economic mechanisms for the development of agroclusters in Uzbekistan. The stages of agrocluster formation have been developed. Proposals for the development of agroclusters have been put forward. A roadmap for the establishment of agroclusters has been developed.

Keywords: agriculture, industries, organizational and economic mechanisms, agroclusters, region, economy, products, strategy, development.


Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash ijtimoiy hayotining ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Olimlar 2030-yilga borib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji kamida 50 foizga oshishini ta‘kidlashmoqda[7]. Ushbu jarayonni birinchidan aholi sonining ko‘payib borishi, ikkinchi tomondan ekin yerlarning foydalanishdan chiqib ketishi, uchinchidan suv resurslarining yetishmasligi bilan izohlash mumkin.

Bu holat Markaziy Osiyo mintaqasida ayniqsa, hududning yirik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi respublika O‘zbekistonda ham kuzatilmoqda. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi bir tomondan iqtisodiyotning yirik tarmog‘i hisoblansa, ikkinchi tomondan aholining ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tarmoqning samarali va barqaror rivojlanishi mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni yumshatishga zamin yaratadi. Chunki, aholining salkam yarimi qishloq joylarda istiqomat qilsa [1], qayta ishlash sanoatining ko‘pgina tarmoqlarining rivojlanishi agrar soha holatiga bog‘liq [2].

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki[4], respublika qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi ichki imkoniyatlardan ancha past darajada. Bu jarayon mintaqada agrar resurslar

salohiyatidan samarasiz foydalanilib kelinayotganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda Respublikada qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muayyan muammo va qiyinchiliklarning borligi, mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetarli darajada takomillashtirilmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur holat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining mavjud elementlarini takomillashtirish, uning tarkibiy asoslarini o‘zgartirish, eng muhimi, uning samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan muallif tomonidan tarmoqda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilgan tuzilmasi taklif qilinmoqda (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini samarali va barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish [3]

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish dastur va qarorlari doirasida amalga oshirilmoqda.

Albatta, bu ijobiy jarayon hisoblanib, mahalliy imkoniyatlarni va tashqi omillarni chuqur ilmiy nuqtai nazardan o‘rganib, respublika qishloq xo‘jaligi uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarini aniqlab olish lozim. Ushbu tadqiqotning asosiy mohiyati ham aynan tabiat-xo‘jalik-aholi tizimi doirasida ekologik muhitni muhofaza qilgan holda, jamiyatning o‘ziga borayotgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.

Biz mazkur ishda agroklasterni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini o‘rganishga harakat qildik.

Respublikada agroklasterni tashkil etish hududlarning yer-suv, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishning garovi hisoblanadi. Shu bois, keyingi yillarda agroklasterni rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. D.K.Begimova,

N.U.Maxmasobirova, A.J.Abdulloyev, J.M.Davletov, M.O.Shamsiyeva, Sh.M.Ilmuratov va boshqalarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

Iqtisodiyotning bozor tamoyillariga asoslangan sharoitida qishloq xo‘jaligida erkin faoliyat yuritishning shakllari rivojlanib boradi. Tarmoqda qaysi shakl ustuvor rivojlanishini davlatning agrar siyosati belgilab beradi. Bu borada, iqtisodchi olim D.Tojiboeva “Kelajakda qishloq xo‘jaligida mehnatga bo‘lgan kuchli motivatsiyani, yer, suv, moddiy, moliyaviy resurslar samaradorligini ta‘minlovchi yangi tashkiliy tuzilma va boshqarish usullarini topish muhim ahamiyatga ega” deb ta‘kidlaydi[8]. Bugungi kunda respublika iqtisodiyotining real sektorida tayyor mahsulot ishlab chiqarishga e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, tadqiqot hududida ham tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarini to‘liq qayta ishlashga bo‘lgan jarayon yuz bermoqda. Avvalo, ushbu masalada yangidan shakllanayotgan qishloq xo‘jaligi klaster va kooperatsiyalarning hissasi beqiyosdir. Zamonaviy infratuzilma va ilg‘or texnologiyalarga ega klaster va kooperativ tizimini rivojlantirish qishloq xo‘jaligini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu tizim daladan iste‘molchigacha to‘liq ishlab chiqarish zanjirini ta‘minlab, eksport hajmini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi[9]. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlashga harakat qilinmoqda[1].

Respublika hududlarida 2021-yili 415 ta klasterlar faoliyat ko‘rsatgan[2]. Shundan, paxta-to‘qimachilik klasterlar soni 122 tani tashkil etgan[2]. Respublikada agroklastlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ham qator qonun va farmonlar qabul qilindi[2]. Ushbu qabul qilingan qonun va farmonlar asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabr oyidagi 733-sonli tasdiqlangan “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomida faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari aniq ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, paxta-to‘qimachilik klasterlari quyidagi shaklda tashkil etiladi [4]:

- qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ijaraga olgan holda paxta yetishtirish;
- paxta xomashyosini shartnoma asosida fermer xo‘jaliklari va boshqa paxta yetishtiruvchilardan sotib olish;
- qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ijaraga olgan holda paxta yetishtirish hamda paxta yetishtiruvchilardan shartnoma asosida sotib olish belgilangan.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, ushbu agroklasterning hammasi ham qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashni yo‘lga qo‘ymagan. Bundan tashqari iqtisodiy ko‘rsatkichlari ham barqaror emas. Demak, hozirgi mavjud bo‘lgan agroklastlar faoliyatini olib borish bo‘yicha tegishli tadbirlarni takomillashtirish talab etadi. Agroklastlar subyektlarining iqtisodiy faoliyatini barqaror va samarali bo‘lishini ta‘minlash maqsadida quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarini takomillashtirishni taqozo etadi:

- klasterlarni tashkil etish va boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish[6]. Konsepsiya respublika mintaqalarida tuzilgan ishchi guruh tomonidan ishlab chiqiladi (ishchi guruh a‘zolari hududning imkoniyatlarini biluvchi, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, biznes, huquqshunoslik bilimlarga ega va manfaatdor bo‘lgan subyektlardan iborat bo‘lishi lozim) va respublika bo‘yicha yagona ekspertlar guruhi tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi va qabul qilinadi. Tuzilgan yo‘l xaritalari mintaqalarning ichki va tashqi imkoniyatlariga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Yo‘l xaritasi bir yildan besh yilgacha tuzilishi maqsadga muvofiq va quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi lozim:

- barcha klaster ishtirokchilari o‘rtasida qat’iy teng munosabatlarga asoslangan shartnomalarni tuzish, shartnomada ko‘rsatilgan talablar buzilgan holda uni buzgan tomonga huquqiy chora ko‘rilib, ikkinchi tomonga moliyaviy va ma‘naviy ko‘rilgan zararlarni qoplab berish;

- agrar sohada faoliyat yurituvchi subyektlarga xavf soluvchi tashqi va ichki iqtisodiy xatarlardan saqlashda, hududlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa turli xil muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf qilish yoki yumshatishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘yish. Qishloq xo‘jaligi yuqori hosildorlik va mahsuldorlikka ega bo‘lgan mamlakatlarda tarmoqni rivojlantirishning ko‘p yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashsiz qishloq xo‘jaligi korxonalarining faoliyati kam samarali hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bunday boshqarish konsepsiyasiga zamonaviy yondashuv bozorning o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmlari va davlat organlari faol ta’sirining uyg‘unligiga asoslanadi[5].

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini noqulay ob-havo va suv tanqisligi sharoitida sug‘urtalashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish[3];

- agroklastlar faoliyatini innovatsion rivojlantirish (energiyani kam sarflash hisobiga), mahsulot ishlab chiqarish, strategiyasi esa eksportga yo‘naltirilgan tayyor va raqobatbardosh mahsulotlarga qaratilgan bo‘lishi;

- hududlarda qishloq xo‘jalik salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishda qishloq tumanlarida irrigatsiya tizimini, transport va kommunal infratuzilmasini madaniy-maishiy obyektlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish va agrar sohada servis xizmatini (turli xil texnika, seleksiya, urug‘chilik, tuproq unumdorligini oshirish, suvdan tejamkor foydalanishni texnologiyasi) takomillashtirish;

- mahalliy hokimiyat organlarining klasterlar faoliyatiga asossiz aralashuviga chek qo‘yishi va h.k.

Respublika mintaqalarida agroklastarlarni tashkil etish, barqaror va samarali rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (1-jadval). Bosqichma-bosqich amalga oshirilishning mohiyati shundaki, birinchidan katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab etmaydi, ikkinchidan ichki va tashqi bozorga moslashib boradi, uchinchi korxonaning menejment va marketing sohalari bo‘yicha tajriba va ko‘nikmalari oshib boradi va nihoyat ishlab chiqarish quvvatini oshiradi, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Agroklastarlarni tashkil etishda paxta-to‘qimachilik, uzum-meva, sabzavot, go‘sht-sut mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan yo‘nalishda

1-jadval

Respublika mintaqalarida agroklastarlarni rivojlantirish bosqichlari [5]

Bosqichlar	Faoliyat turi	Tadbir
I-bosqich	Tashkiliy	faoliyat ko‘rsatayotgan agroklastarlarning iqtisodiy samarali faoliyat yuritish va yangi klasterlarni tashkil etishda davlatning qo‘llab-quvvatlashi; qishloq xo‘jaligi ekin yerlari hosildorligini oshirish, seleksiya, urug‘chilik, naslchilik, zararkunandalarga qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy muassasalarni shakllantirish, mavjudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash; ishlab chiqarish, transport, bozor, muhandislik-texnik, ijtimoiy, logistika infratuzilma tarmoqlarini, sug‘orish, kollektor-drenaj tizimlarini shakllantirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish; tumanlararo va mintaqalararo integratsion aloqalarni yo‘lga qo‘yish; ichki hamda tashqi bozordagi talabni o‘rganish va h.k.
II-bosqich	Industrial	xorijiy investorlar, davlat, korxona va aholi mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishni intensiv rivojlantirish va yetishtirilgan mahsulotlarni to‘liq qayta ishlashni amalga oshirish; qishloq xo‘jaligini kooperativlashtirish, kontsentrlashtirish va ixtisoslashtirish; qishloq xo‘jaligini kompleks mexanizatsiyalash, zamonaviy texnikalarni amaliyotga joriy etish, agroklastarlarning barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini ajratmagan holda boshqarishni tashkil etish; chorvachilik fermalarida olib boriladigan ishlarni to‘liq avtomatlashtirish, parrandachilikni broiler, sabzavot

		mahsulotlarini yetishtirishni teplitsa-parnik asosida rivojlantirish.
III-bosqich	Innovatsion	suv bilan bog‘liq innovatsion texnologiyalar, samarali sug‘orish va suspenziyasi o‘g‘itlash, suv manbalarini himoya qilish; tuproq bilan bog‘liq innovatsiyalar, tuproq unumdorligini innovatsion boshqarish, qishloq xo‘jaligi uchun foydali mikroorganizmlar; chorva mollarini saqlash va innovatsion parvarish qilish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini innovatsion qayta ishlash; aqlii qishloq xo‘jaligi infratuzilmalaridan foydalanish va boshqalar.

rivojlantirish maqsadga muvofiq. Yuqorida ko‘rsatilgan tarmoqlar uchun ichki salohiyat yetarli darajada mavjud.

Milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi yaqin istiqbolda ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash asosida tayyor, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tarmoq eksport salohiyatini oshirishga bog‘liqligini hisobga olib, quyidagi tamoyillarga asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- mintaqalarda ekin yerlar hosildorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi oborotidan chiqib qolgan yerlardan samarali foydalanish, har bir ekin yerga sarflanadigan xarajatlarni minimal darajaga tushirish yoki kamaytirish va maksimal mahsulot olishni yo‘lga qo‘yish;

- tarmoqda barqaror va samarali rivojlanishga erishishda fan-texnika yutuqlarini jumladan, seleksiya, almashlab ekish, suv resurslaridan foydalanishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish;

- strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish miqdorini oshirish ya‘ni tarmoqda tashqi bozor uchun tayyor va raqobatbardosh mahsulotlarni ko‘paytirish orqali uning eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport qiluvchi korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, qishloq joylarida qayta ishlovchi va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha kichik biznes obyektlarini ishga tushirish orqali aholini daromad manbai bilan barqaror ta‘minlash. Albatta, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir mintaqaga ko‘proq tashqi bozorga mahsulot chiqarishga harakat qiladi. Biroq bu nisbiy afzallik, hududiy mehnat taqsimotiga zid bo‘lmasligi lozim;

- agrar soha va qayta ishlash sanoat tarmoqlarini integratsiya qilish orqali qo‘shilgan qiymat daromadini ko‘paytirib borish, xomashyodan tayyor mahsulot olishga bo‘lgan yagona bir tizimga asoslangan ishlab chiqarish “zanjirini” shakllantirish. Bu borada, N.N. Kolosovskiyning energiya ishlab chiqarish sikllari g‘oyasi, K.I.Ivanovning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hududiy tizimlarning shakllanishi va M.Porterning klasterlarni tashkil etish ilmiy konsepsiyalariga amal qilish maqsadga muvofiq. Ushbu g‘oyalarning asosiy mazmuni ishlab chiqarish jarayonlarini ma‘lum hududda to‘plash, texnologik tomondan uzluksizligi, tayyor va chiqindisiz mahsulot ishlab chiqarishga ahamiyat berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T.: O‘zbekiston. 2023. 416 b.
2. Begimova D.K. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2023.
3. Дудник Е. Государственная поддержка сельского хозяйства Украины: состояние, проблемы, перспективы. Макроэкономическая сбалансированность и комплексное социально-экономическое развития: // материалы II Форума молодых ученых-экономистов / под общей редакцией д.э.н. Садыков А.М. Т.: Baktria press. 2013. С.
4. Eshimbetov U.X. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi. // Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №3. 112-125 betlar.

5. Кулиев Р. Мировой опыт развития сельского хозяйства и продовольственная безопасность государства. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-opyt-razvitiya-selskogo-hozyaystva-i-prodovolstvennaya-bezopasnost-gosudarstva>
6. Отажонов Ш. Инновацион кластерлар ташкил этиш – худудларнинг бошқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим омили. // Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов / под общей редакцией д.э.н. Садыков А.М. Т.: IFMR. 2013.
7. Пулатов Д., Хайдаров А. Перспективы «зелёной» экономики. // Экономический вестник Узбекистане. 2021. №6. С. 120-122.
8. Тожибоева Д. Фермер хўжаликлари самарадорлигининг илмий-назарий асослари. // Иқтисод ва молия. 2017. №12.
9. Ходжаев Ж. Агропромышленные реформы: от кластеризации до цифровизации. // Экономические обозрение. 2021. №8. С. 28-39.

UDK:338.24

**TADBIRKORLIK SHAROITIDA YASHIL BIZNESNI TASHKIL ETISH VA
RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОГО БИЗНЕСА В
УСЛОВИЯХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**PECULIARITIES OF ORGANIZING AND DEVELOPING GREEN BUSINESS IN THE
CONTEXT OF ENTREPRENEURSHIP**

Raximova Kizlarxon Ne‘matjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot
Iqtisodiyot va turizm kafedrası o‘qituvchisi, Iqtisodiyot fanlar falsafa doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Yashil biznes – bu atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy mas’uliyatni hisobga oladigan biznes shakli hisoblanadi. Maqolada yashil biznesni yaratishda bozorni tahlil qilish, resurslarni optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ekologik standartlarga rioya qilishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: yashil biznes, tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiya, resurslarni tejash, Ijtimoiy mas’uliyat, ekologik standartlar.

В данной статье анализируются особенности организации и развития зелёного бизнеса в условиях предпринимательства. Зелёный бизнес — это форма бизнеса, которая не наносит вреда окружающей среде, эффективно использует ресурсы и учитывает социальную ответственность. В статье показана важность анализа рынка, оптимизации ресурсов, внедрения инновационных технологий и соблюдения экологических стандартов при создании зелёного бизнеса.

Ключевые слова: зелёный бизнес, предпринимательство, устойчивое развитие, экологические инновации, экономия ресурсов, социальная ответственность, экологические стандарты

This article analyzes the peculiarities of establishing and developing green business in the context of entrepreneurship. Green business is a form of business that does not harm the environment, uses resources efficiently, and considers social responsibility. The article highlights the importance